



ISSN 2010-7145

# FARMATSEVTIKA JURNALI

Фармацевтический журнал  
Pharmaceutical journal

Pharmi.uz

2024. Том 33. №3

# НАУЧНЫЙ ЦЕНТР СТАНДАРТИЗАЦИИ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ

**ИСПЫТАТЕЛЬНЫЙ ЦЕНТР АККРЕДИТОВАН  
ПО СТАНДАРТУ O'z Dst ISO/IEC17025:2007**

Все виды услуг по  
РАЗРАБОТКЕ И СТАНДАРТИЗАЦИИ  
лекарственных средств

«Общие требования по компетентности  
испытательных лабораторий  
и калибровки»

## НАШИ УСЛУГИ:

### КОНТРОЛЬ КАЧЕСТВА ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ

- ❖ УСЛУГИ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИМ ОРГАНИЗАЦИЯМ ПО КОНТРОЛЮ КАЧЕСТВА ПРЕПАРАТОВ;
- ❖ АНАЛИЗ МИНЕРАЛЬНЫХ ВОД ПО СТАНДАРТУ O'z Dst 540:2010 «ВОДЫ МИНЕРАЛЬНЫЕ ПИТЬЕВЫЕ ЛЕЧЕБНЫЕ, ЛЕЧЕБНО-СТОЛОВЫЕ, СТОЛОВЫЕ» ОБЩИЕ ТЕХНИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ;
- ❖ РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ;
- ❖ РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ АНАЛИЗА ИЛИ АДАПТИРОВАНИЯ ИМЕЮЩИХСЯ С УЧЕТОМ СПЕЦИФИКИ И УСЛОВИЙ;
- ❖ РАЗРАБОТКА И СОГЛАСОВАНИЕ ПРОЕКТОВ ФАРМАКОПЕЙНЫХ СТАТЕЙ И РЕГЛАМЕНТОВ;
- ❖ ОПРЕДЕЛЕНИЕ МИКРОБИОЛОГИЧЕСКОЙ ЧИСТОТЫ, СТЕРИЛЬНОСТИ, АНТИМИКРОБНОЙ АКТИВНОСТИ И КОЛИЧЕСТВЕННОЕ ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ А ТАКЖЕ ВЫЯВЛЕНИЕ РОСТОВЫХ СВОЙСТВ ПИТАТЕЛЬНЫХ СРЕД;
- ❖ ОПРЕДЕЛЕНИЕ БАКТЕРИАЛЬНЫХ ЭНДОТОКСИНОВ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ;
- ❖ РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ;
- ❖ ПРОВЕДЕНИЕ ПОЛНОГО ЦИКЛА ИССЛЕДОВАНИЙ ПО РАЗРАБОТКЕ НОВЫХ ПРЕПАРАТОВ, НАЧИНАЯ ОТ РАЗРАБОТКИ ТЕХНОЛОГИИ ЛЕКАРСТВЕННОЙ ФОРМЫ, ИЗУЧЕНИЕМ ЕЕ СТАБИЛЬНОСТИ, А ТАКЖЕ ПРОВЕДЕНИЕМ ПОЛНОГО ЦИКЛА, ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ (ОБЩАЯ ТОКСИЧНОСТЬ, СПЕЦИФИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ, БИОЭКВИВАЛЕНТНОСТЬ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ).



- ❖ РАЗРАБОТКА ПОЛНОГО ПАКЕТА НОРМАТИВНЫХ ДОКУМЕНТОВ ДЛЯ РЕГИСТРАЦИИ И ПРОИЗВОДСТВА ПРЕПАРАТА, АДАПТИРОВАННЫХ ПОД ТРЕБОВАНИЯ ЗАКАЗЧИКА;
- ❖ ВСЕ ВИДЫ КОНСАЛТИНГОВЫХ УСЛУГ И РЕШЕНИЕ ВОПРОСОВ С СОЗДАНИЕМ, СТАНДАРТИЗАЦИЕЙ И ВНЕДРЕНИЕМ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ;
- ❖ ПОВЫШЕНИЕ КВАЛИФИКАЦИИ СПЕЦИАЛИСТОВ, ОТВЕТСТВЕННЫХ ЗА ПРОИЗВОДСТВО И КАЧЕСТВО ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ, ВЫПУСКАЕМЫХ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ, РАБОТАЮЩИХ ПО ПРАВИЛАМ GMP ИЛИ ПРИСТУПИВШИМ К ИХ ОСВОЕНИЮ И ВНЕДРЕНИЮ НА ПРОИЗВОДСТВЕ.

## ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ

Оказание научно-методической и практической помощи фармацевтическим предприятиям, организациям, НИИ и ВУЗам, занимающиеся вопросами создания и разработки новых лекарственных средств в сфере стандартизации, фармако-токсикологических исследований, и разработки нормативных документов с учетом международных требований.

Центр основан в 2001 году на базе Ташкентского фармацевтического института и ГУП «Государственный центр экспертизы и стандартизации лекарственных средств, изделий медицинского назначения и медицинской техники», согласно приказа МЗ РУз.

## СТРУКТУРНЫЕ ПОДРАЗДЕЛЕНИЯ НАУЧНОГО ЦЕНТРА

- ЛАБОРАТОРИЯ КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА И СТАНДАРТИЗАЦИИ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ
- ЛАБОРАТОРИЯ МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ



- ЛАБОРАТОРИЯ БИОХИМИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ
- ЛАБОРАТОРИЯ ФАРМАКО-ТОКСИКОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ
- НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ОТДЕЛ
- УЧЕБНЫЙ ТРЕНИНГ-ЦЕНТР ПО СОВРЕМЕННЫМ МЕТОДАМ АНАЛИЗА

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

---

## FARMATSEVTIKA JURNALI

Jurnalga 1992-yilda asos solingan  
Yilda 6 marta chiqadi

## PHARMACEUTICAL JOURNAL

Founded in 1992  
Published 6 times a year

№ 3. 2024

## ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

Основан в 1992 г.  
Выходит 6 раз в год

"IBN-SINO" NASHRIYOTI  
TOSHKENT – 2024

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RO'YXATDAN O'TGAN DIURETIK DORI VOSITALARINING ASSORTIMENTI TAHLILI

**Mullajonova Manzura Tohirovna, Komilov Xojiasror Ma'sudovich,  
Madatova Nazira Abdug'affarovna**

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

\*e-mail: robiya1903@gmail.com

O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestrlari: 2019 yil №23, 2020 yil №24, 2021 yil №25, 2022 yil №26 va 2023 yil №27 ma'lumotlari va DRUG AUDIT ma'lumotlari asosida O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan diuretik dori vositalarining marketing tahlili o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorida diuretik dori vositalarini ro'yxatga olish tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda mahalliy, yuqori samarali diuretik dori vositalarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish juda dolzarb va istiqbolli hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** assortiment tahlil, diuretik dori vositalar, DRUG AUDIT, yuqori qon bosimi kasalliklari, Asosiy dori vositalari ro'yxati, Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST).

Diuretiklar tanadan siydik sifatida chiqariladigan suv va tuz miqdorini oshirish uchun mo'ljallangan dori vositalari bo'lib, ular bilan davolanadigan eng keng tarqalgan holat yuqori qon bosimi kasalliklari hisoblanadi. Diuretik dori vositalar qon tomirlaridagi suyuqlik miqdorini kamaytiradi va bu qon bosimini pasaytirishga yordam beradi. Ular surunkali qon aylanishini buzilishida, nefrotik sindromda, jigar sirrozida keng qo'llaniladi. Hozirgi kunda yuqori qon bosimi kasalliklarida, glaukoma va boshqa kasalliklarni davolashda suv-tuz almashinuvini nazorat qilishda juda keng qo'llanilib kelinmoqda. Asosiy qon bosimini tushiruvchi dori vositalar guruhiga diuretiklar, b-adrenoblokatorlar, kaltsiy antagonistlari, angiotensinni o'zgartiruvchi ferment (AOF) ingibitorlari, AT<sub>1</sub>-angiotensin retseptorlari blokatorlari va A<sub>1</sub>-adrenoblokatorlar kiradi. Bundan tashqari, arterial gipertenziyani davolash samaradorligini oshirish va noxush hodisalarni rivojlanish xavfini minimallashtirish uchun JSST mutaxassislari antigipertenziv dori vositalarning quyidagi kombinatsiyalaridan foydalanishni tavsiya etadilar. Bular - diuretik va b-adrenoblokator; - diuretik va APF ingibitori (AT<sub>1</sub>-angiotensin retseptorlari blokatorlari); - digidropiridin seriyasining kaltsiy antagonisti va b-adrenoblokator; - kaltsiy antagonisti va APF ingibitori; b-blokator va A<sub>1</sub>-blokatorlari [1].

Tadqiqotning maqsadi: O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan diuretik dori vositalarining 2019-2023 yillar uchun assortiment tahlilini o'tkazish.

Diuretiklar guruhining dori vositalari assortiment tahlili DRUG AUDIT ma'lumotlari bilan taqqoslangan holda o'rganilib chiqish.

**Natijalar va muhokamalar:** O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023 yil 21 avgustdagi buyrug'iga asosan "Asosiy dori vositalari ro'yxat"i tasdiqlangan. Asosiy dori vositalari ro'yxatida quyidagi xalqaro patentlanmagan nomdagi diuretik dori vositalari kiritilgan. 1-jadvalda Asosiy dori vositalari ro'yxatiga kiritilgan diuretik dori vositalari keltirilgan.

Tahlilning keyingi bosqichida O'zbekiston Respublikasining 2019–2023-yillardagi Tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestri ma'lumotlarini tahlilini amalga oshirildi. Tahlil natijalariga ko'ra 2023 yilda, O'zbekiston hududida jami 76 turdagi diuretik dori vositalari ro'yxatga olingan bo'lib, ushbu dori vositalar assortimentida 27 (35,5 %) xorijiy ishlab chiqaruvchilar, 10 (13,1%) MDH ishlab chiqaruvchilari va 39 (51,4%) mahalliy ishlab chiqaruvchilarni tashkil etadi.

2019 yilda umumiy 75 nomda diuretik dori vositalari ro'yxatdan o'tgan, ushbu dori vositalarning 31 (41,3 %) nomdagisi xorijiy ishlab chiqaruvchilar, 19 (25,3%) MDH davlatlari ishlab chiqaruvchilari va 25 (33,4%) mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan. Ushbu ko'rsatkichlarga asoslanib, 2019 yilga nisbatan 2023 yilda ro'yxat-

dan o'tgan diuretik dori vositalar soni ortganini ko'rishimiz mumkin. Mahalliy va MDH davlatlari ishlab chiqaruvchilari orasida ko'rsatkichlarning sezilarli o'sishi kuzatildi. Tahlilimizning keyingi bosqichida O'zbekiston Respublikasi Tibbiyot amaliyotida ruxsat etilgan

dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestrining 5 yillik ma'lumotlari solishtirma tahlili olib borildi. 2-jadvalda O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan diuretik dori vositalarni tahlil qilish natijalari keltirilgan.

1-jadval.

Asosiy dori vositalar ro'yxatiga kiritilgan diuretik dori vositalar

| Nº | XPN           | Dori shakli                                                                         |
|----|---------------|-------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | Torasemid     | 2,5 mg; 5 mg; 10 mg; 20 mg tabletkalar                                              |
|    |               | 5 mg/ml; 10 mg/ml inyeksiya uchun eritma                                            |
| 2. | Spironolakton | 25 mg; 50 mg; 100 mg tabletkalar                                                    |
|    |               | 50 mg; 100 mg kapsulalar                                                            |
| 3. | Mannitol      | 10%; 15%; 20% 100 ml; 200 ml; 250 ml; 400 ml; 500 ml infuziya uchun eritma (flakon) |
| 4. | Furosemid     | 1% 2 ml inyeksiya uchun eritma                                                      |
|    |               | 40 mg tabletkalar                                                                   |

2-jadval.

2019-2023 yillarda diuretik dori vositalarni  
O'zbekiston Respublikasi Davlat reyestridan ro'yxatdan o'tkazilish tahlili

| Yillar | O'zbekiston |      | MDH  |      | Xorijiy davlatlar |      | Umumiy |
|--------|-------------|------|------|------|-------------------|------|--------|
|        | Soni        | %    | Soni | %    | Soni              | %    | Soni   |
| 2019   | 25          | 33,4 | 19   | 25,3 | 31                | 41,3 | 75     |
| 2020   | 40          | 47,0 | 13   | 15,3 | 32                | 37,7 | 85     |
| 2021   | 41          | 48,8 | 13   | 15,4 | 30                | 35,8 | 84     |
| 2022   | 39          | 48,2 | 10   | 12,3 | 32                | 39,5 | 81     |
| 2023   | 39          | 51,4 | 10   | 13,1 | 27                | 35,5 | 76     |

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, 2019–2023-yillarda Davlat reyestridan ro'yxatdan o'tgan xorijiy davlatlardan import qilingan diuretik dori vositalarning ulushi 2019–2023-yillarda sezilarli darajada kamaydi, ammo mahalliy farmatsevtik ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan diuretik dori vositalarning ulushi yildan-yilga oshgan. Bu so'nggi yillarda mahalliy farmatsevtik korxonalar tomonidan diuretik dori vositalarining ishlab chiqarilish va ro'yxatdan o'tkazilish soni ortib borayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida biz diuretik dori vositalarni ishlab chiqaruvchi davlatlar bo'yicha tahlilini amalga oshirdik. Unga asosan diuretik dori vositalari turli davlatlarning farmatsevtik korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan va ular orasida Hindiston, Germaniya, Ukraina va Polsha kabi davlatlaridan eng ko'p diuretik dori vositalar ro'yxatdan o'tgan. Tahlil natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, diuretik dori vositalarning katta qismi tabletkalar dori shakli-

da ro'yxatdan o'tgan. 2019 yilda mahalliy farmatsevtik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan diuretik dori vositalarning deyarli yarmi dorivor o'simlik xom ashyosi shaklida bo'lgan, ammo 2023 yilda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan diuretik dori vositalarning salmoqli qismini inyeksiya uchun eritma va tabletkalar dori shakllarida ishlab chiqarilgan.

Tadqiqotning keyingi qismida 2019–2023-yillardagi diuretik dori vositalarning O'zbekiston farmatsevtika bozoridagi ulushi DRUG AUDIT ma'lumotlari asosida tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston farmatsevtika bozoridagi diuretik dori vositalarning aksariyatini xorijiy davlatlardan keltirilgan diuretik dori vositalari tashkil qilishini kuzatildi.


1-diagrammadan ko'rinib turibdiki, 2019-2020 yillarda diuretik dori vositalarning farmatsevtik bozordagi ulushi oshgan, shuning bilan birga, 2020-2023 yillarda diuretik dori vositalarning bozordagi ulushi mos ravishda pasayganligini ko'rildi.

## Diuretik dori vositalarni ishlab chiqaruvchi davlatlar bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish tahlili


| Ishlab chiqaruvchi davlat nomi | Ro'yxatdan o'tgan diuretik dori vositalar |      |          |      |          |      |          |      |          |      |
|--------------------------------|-------------------------------------------|------|----------|------|----------|------|----------|------|----------|------|
|                                | Soni                                      | %    | Soni     | %    | Soni     | %    | Soni     | %    | Soni     | %    |
|                                | 2019 yil                                  |      | 2020 yil |      | 2021 yil |      | 2022 yil |      | 2023 yil |      |
| Turkiya                        | 5                                         | 6,8  | 5        | 5,9  | 5        | 5,9  | 5        | 6,2  | 3        | 4,0  |
| Hindiston                      | 7                                         | 9,5  | 7        | 8,2  | 7        | 8,4  | 7        | 8,6  | 7        | 9,2  |
| Ispaniya                       | 2                                         | 2,7  | 2        | 2,4  | 1        | 1,2  | 1        | 1,2  | 1        | 1,3  |
| Italiya                        | -                                         |      | -        |      | -        |      | 1        | 1,2  | 1        | 1,3  |
| Germaniya                      | 3                                         | 4,0  | 4        | 4,7  | 4        | 4,8  | 5        | 6,2  | 5        | 6,6  |
| Polsha                         | 6                                         | 7,1  | 6        | 7,0  | 6        | 7,1  | 6        | 7,5  | 6        | 7,9  |
| Chexiya Respublikasi           | 2                                         | 2,7  | 2        | 2,4  | 2        | 2,4  | 2        | 2,5  | 2        | 2,6  |
| Vengriya                       | 4                                         | 5,4  | 4        | 4,7  | 4        | 4,8  | 4        | 4,9  | 2        | 2,6  |
| Sloveniya                      | 2                                         | 2,7  | 2        | 2,4  | 1        | 1,2  | 1        | 1,2  | -        |      |
| Rossiya                        | 4                                         | 5,4  | 2        | 2,4  | 2        | 2,4  | 1        | 1,2  | 3        | 4,0  |
| Gruziya                        | 3                                         | 4,0  | 2        | 2,4  | 2        | 2,4  | 2        | 2,5  | 1        | 1,3  |
| Ukraina                        | 8                                         | 10,8 | 6        | 7,0  | 6        | 7,1  | 5        | 6,2  | 4        | 5,2  |
| Belarus                        | 4                                         | 5,4  | 3        | 3,5  | 3        | 3,5  | 2        | 2,5  | 2        | 2,6  |
| O'zbekiston                    | 25                                        | 33,5 | 40       | 47,0 | 41       | 48,8 | 39       | 48,1 | 39       | 51,4 |
| Umumiy miqdori                 | 75                                        | 100  | 85       | 100  | 84       | 100  | 81       | 100  | 76       | 100  |

## 2019-2023 yillarda ro'yxatdan o'tgan diuretik dori vositalarning dori shakllari bo'yicha tahlil natijalari

| Dori shakli                  | Ro'yxatdan o'tgan dori vositalar soni |          |          |          |          |
|------------------------------|---------------------------------------|----------|----------|----------|----------|
|                              | 2019 yil                              | 2020 yil | 2021 yil | 2022 yil | 2023 yil |
| Inyeksiya uchun eritma       | 15                                    | 23       | 23       | 26       | 28       |
| Dorivor o'simlik xom ashyosi | 17                                    | 16       | 15       | 10       | 8        |
| Tabletkalar                  | 41                                    | 40       | 40       | 38       | 33       |
| Tomchilar                    | -                                     | 1        | 1        | 1        | 1        |
| Kapsulalar                   | 2                                     | 4        | 4        | 5        | 5        |
| Draje                        | -                                     | 1        | 1        | 1        | 1        |
| Umumiy soni                  | 75                                    | 85       | 84       | 81       | 76       |



1-diagramma. 2019-2023 yillarda O'zbekiston farmatsevtik bozoridagi diuretik dori vositalar ulushi



**2-diagramma. 2019–2023-yillarda O‘zbekiston bozoriga xorijiy mamlakatlardan olib kelinadigan va mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan diuretik dori vositalarning ulushi**

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, xorijiy mamlakatlardan O‘zbekiston bozoriga olib kirilayotgan diuretik dori vositalar ulushi 2021 yilga qadar ortib borib, 2022 yildan pasayishini ko‘rishimiz mumkin. Mahalliy farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan diuretik dori vositalarning bozordagi ulushi esa yildan-yilga o‘sib bormoqda.

**Xulosa.** Tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, diuretik dori vositalarining dori shakli bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan diuretik dori vositalar yetakchi o‘rinni egallaydi. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tgan diuretik dori vositalarning aksariyati mahalliy farmatsevtika korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan dori vositalar bo‘lishiga qaramay, mahalliy farmatsevtik korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan diuretik dori vositalarining dori shakllari assortimenti keng emas.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tgan diuretik xususiyatlarga ega dori vositalarning 70%i deyarli xorijiy davlatlardan keltirilmoqda. Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorida diuretik dori vositalarini assortiment tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda mahalliy va yuqori samarali diuretik dori vositalarni yaratish hamda ishlab chiqarishga joriy etish juda dolzarb va istiqbolli hisoblanadi.

#### Adabiyotlar ro‘yxati.

1. E. V. Kleychuk, S. A. Mixaylova, L. A. Zolotuxina, N. A. Andreyeva, E. A. Popova, O. G. Ivchenko Pyatigorsk

shahridagi dorixona tashkilotlarida diuretik dorilar assortimentini alohida marketing tadqiqotlari // Farmatsiya va farmakologiya. 2014.№6 (7). 117 s.

2. Мадатова Н. А., Тоштемирова Ч. Т. Маркетинговый анализ противодиарейных лекарственных средств //Universum: медицина и фармакология. – 2024. – №. 4 (109). – С. 46-53.

3. O‘zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo‘llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestri. - №23. - 2019. 1062 b.

4. O‘zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo‘llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestri. - №24. - 2020. 1183 b.

5. O‘zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo‘llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestri. Yigirma beshinchi nashr, qayta ishlangan va to‘ldirilgan - Toshkent. -2021. -1068 b.

6. O‘zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo‘llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestri. - №26. - 2022. 1180 b.

7. O‘zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo‘llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestri. - №27. - 2023. 1053 b.

# АССОРТИМЕНТНЫЙ АНАЛИЗ ДИУРЕТИЧЕСКИХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ, ЗАРЕГИСТРИРОВАННЫХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Муллажоновна Манзура Тохиоровна, Комилов Хожиасрор Маъсудович,  
Мадатова Назира Абдугаффаровна

Ташкентский фармацевтический институт, г.Ташкент, Республика Узбекистан  
\*e-mail: robiya1903@gmail.com

Проведен ассортиментный анализ диуретических лекарственных средств на основе Государственного Реестра лекарственных средств, изделий медицинского назначения и медицинской техники, разрешенных в медицинской практике Республики Узбекистан №23 за 2019 г., №24 за 2020 г., №25 за 2021 г., №26 за 2022 г. и №27 за 2023 г. Из данных видно, что доля диуретических препаратов на рынке увеличилась в 2019-2020 годах, но также, как количество регистраций доля рынка соответственно сократилась в 2020-2023 годах. Таким образом, анализ регистрации диуретических препаратов на фармацевтическом рынке Республики Узбекистан показывает, что в настоящее время, создание и внедрение в производство отечественных высокоэффективных диуретических препаратов является очень актуальным и перспективным.

**Ключевые слова:** ассортиментный анализ, диуретические препараты, DRUG AUDIT, болезни высокого кровяного давления, список Основных лекарств, Всемирная организация здравоохранения (ВОЗ).

## ASSORTMENT ANALYSIS OF DIURETIC MEDICINES REGISTERED IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Mullazhonova Manzura Tokhirovna, Komilov Khozhiasror Masudovich,  
Madatova Nazira Abdugafforovna

The Tashkent Pharmaceutical Institute, Tashkent, Republic of Uzbekistan  
\*e-mail: robiya1903@gmail.com

An assortment analysis of diuretic medicines was carried out on the basis of the State Register of medicines, medical devices and medical equipment approved in medical practice of the Republic of Uzbekistan No. 23 for 2019, No. 24 for 2020, No. 25 for 2021, No. 26 for 2022 and No. 27 for 2023. The data shows that the market share of diuretic medicines increased in 2019-2020, but also as the number of registrations, the market share decreased accordingly in 2020-2023. Thus, an analysis of the registration of diuretic medicines in the pharmaceutical market of the Republic of Uzbekistan shows that at present, the creation and introduction into production of domestic highly effective diuretic medicines is very relevant and promising.

**Key words:** assortment analysis, diuretics, DRUG AUDIT, high blood pressure diseases, list of Essential medicines, World Health Organization (WHO).